

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**MADRAXIMOV ABLAZBEK ERKINJON O‘G‘LI**

**GEOGRAFIK NOMLARNING EKOLOGIK FUNKSIYASINI  
MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI  
(O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

**11.00.02 –Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on geographical sciences**

**Madraximov Ablazbek Erkinjon o‘g‘li**

Geografik nomlarning ekologik funksiyasini mintaqaviy xususiyatlari

(O‘zbekiston Respublikasi misolida) ..... 3

**Мадрахимов Аблазбек Эркинжон угли**

Региональные особенности экологической функции географических названий

(на примере Республики Узбекистан) ..... 21

**Madrakhimov Ablazbek Erkinjon ugli**

Regional characteristics of the ecological function of geographical names

(on the example of the Republic of Uzbekistan)..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**MADRAXIMOV ABLAZBEK ERKINJON O‘G‘LI**

**GEOGRAFIK NOMLARNING EKOLOGIK FUNKSIYASINI  
MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI  
(O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

**11.00.02 –Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Gr252 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Ahmadaliyev Yusupjon Ismoilovich  
geografiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Usmanov Ma'rufdjan Rustamovich  
geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hakimov Qo'chqor Mahkamovich  
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 24-aprel soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (+99899) 776-77-25, faks: (+99866) 239-11-40; e-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy, Tel.: (+99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 10-aprel kuni tarqatildi.  
(2026-yil 31-mart №7-raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.B.Abbasov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, geografiya fanlari doktori, professor

**B.A.Meliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, geografiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.R.Usmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, geografiya  
fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ekologik muammolarning keskinlashib borishi ularning hal etishni turli usul va vositalardan foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shunday vositalardan biri sifatida geografik nomlarning etimologik tahliliga ahamiyat berilmoqda. BMTda geografik nomlar bo'yicha faoliyat yurituvchi Ekspertlar guruhi (UNGEGN) geografik nomlarning yuzaga kelishidagi qo'llaniladigan nom tanlash usullarini mintaqaviy jihatlariga e'tibor qaratib, "ularning ekologiya, barqaror rivojlanish va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy ofatlarni oldini olish va bartaraf etish yo'nalishidagi faoliyatlarida foyda keltirishi mumkinligi"<sup>1</sup>ni ta'kidlaydi. Shu sababli dunyoning turli mintaqalarda geografik nomlar paydo bo'lishiga asos bo'lgan landshaftlarning dastlabki holati haqida tasavvurni shakllantirishni, joy relyefi, o'simlik va hayvonot dunyosida yuz bergan o'zgarishlarni aniqlash, tabiatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy ekologik oqibatlar haqida barvaqt ma'lumotlar olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda ko'plab xalqlar tomonidan geografik nomlarning darakchilik xususiyatidan foydalanish orqali orttirilgan bilim, ko'nikma, malaka va odatlarni avloddan-avlodga yetkazib berish vositasi sifatida geografik joy nomlarini ekologik funksiyalarining ilmiy asoslarini, mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlarga ustuvor e'tibor qaratilmoqda. Bu borada mintaqalardagi aholining milliy-etnik tarkibi, ijtimoiy qatlamlari haqida ma'lumot beruvchi geografik nomlar va terminlar hamda joyning relyefi, suv resurlari shuningdek o'simlik va hayvonot olami vakillarining ekologik jihatlarini amaliy maqsadlarda foydalanish yo'nalishini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda geografik nomlarni, ularning shakllanishiga asos bo'lgan mintaqaviy, tabiiy, ijtimoiy xususiyatlarini, nomlarning manzilini ko'rsatib berishdan boshqa ekologik funksiyalarini ilmiy asosda o'rganish va ulardan foydalanish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda hamda sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish"<sup>2</sup> yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada xalqimiz tarixining turli bosqichlarida, tabiiy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanib, nomoddiy madaniy meros va ma'naviy boylik darajasiga ko'tarilgan geografik nomlar va mahalliy terminlarning ekologik tahliliga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-fevraldagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019 yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

<sup>1</sup> United Nations Group of Experts on Geographical Names, UNGEGN (<http://unstats.un.org/unsd/geoinfo/>)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-fevraldagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi, 2020-yil 29-yanvardagi 40-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” hamda V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Geografik joy nomlarini ilmiy jihatlarini tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslarini xorijiy olimlardan R. Stewart, A.Smith, M.Vasmer, M.Gelling, A.Dauzat, A.Room, F.Palatskim, F.Mikloshichem, A. Nasser va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida geografik joy nomlarini tadqiq etish bilan A.V.Superanskaya, V.A.Nikonov, Y.M.Pospelov, A. I.Popov, V.A.Juchkevich, Y.L.Lyubimova, E.M.Murzayev, V.D.Belenkaya, R.M.Yuzbashev, X.L.Xanmagomedov singari olimlar tomonidan o‘rganilgan.

O‘zbekistonda toponimikaning turli yo‘nalishlarini ilmiy tadqiq etishga H.Hasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, T.Nafasov, N.Uluqov, P.G‘ulomov, T.Nafasov, Q.Hakimov, Y.Axmadaliyev, M.Mirakmalov, P.Otaqulov, O.Baltabayev, B.Eshboyev, M.Avezov, Sh.Valiyeva kabi olimlar tadqiqot olib borganlar. Jumladan, H.Hasanov tomonidan toponimlarni kelib chiqishi, etimologiyasi, nomlarning to‘g‘ri yozilishi, talaffuzi va toponimlarni terminlarga qarab tadqiq qilish usullariga katta ahamiyat berilgan bo‘lsa, M.Mirakmalov tadqiqotlarida mamlakatimizdagi geografik joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlari, tarqalish qonuniyatlarida terminlarning ahamiyati va geografik lingvistika masalalarini yoritishga bag‘ishlangan. Biroq, mamlakatimizning geografik joy nomlari ijtimoiy-ekologik jihatdan yetarli darajada o‘rganilmagan bo‘lib, xususan, geografik nomlarning ekologik funksiyalari orqali tabiiy resurslarni asrab-avaylash, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga yo‘naltirilgan xususiyatlari kam o‘rganilgan masalalardan hisoblanadi. Ushbu tadqiqot ishi yuqoridagi ilmiy-amaliy masalalarni tadqiq etishga bag‘ishlanadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ITD-7-29 raqamli “Farg‘ona vodiysi tabiiy resurslari, ulardan oqilona foydalanish va yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni bartaraf etish yo‘llari” (2020-2024) amaliy tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston Respublikasi geografik joy nomlari xususiyatlarini geografik tahlil qilish asosida hududlarni muhofaza qilish va atrof-

muhitni asrashda geografik nomlarning ekologik funksiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Geografik nomlarning ekologik funksiyasini mazmun va mohiyatini ochib berish, tadqiqot yo‘nalishiga mos uslub va usullarni tanlash hamda takomillashtirish;

Geografik nomlarni ekologik jihatdan tadqiq etishning O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda to‘plangan tajribalarini ilmiy o‘rganilganlik darajasini tahlil qilish;

Geografik nomlarni ekologik xususiyatlari bo‘yicha tasniflash, tadqiqotning asosiy yo‘nalishlarini belgilash;

Mamlakatimizdagi tabiiy-geografik asosga ega bo‘lgan nomlarning (oronim, gidronim, fito va zootoponim) ekologik funksiyalarini tahlil qilish, ularning vaqt o‘tishi mobaynida o‘zgaruvchanligini aniqlash;

Mamlakatimizdagi ijtimoiy asosga ega geografik nomlar (antropo va etnotoponimlar) va terminlarning geografik obyektlarga egalik qilish, ularni asrash va saqlashdagi funksiyalarini ochib berish;

Tabiatni muhofaza qilishda geografik nomlardan foydalanish mexanizimini (ilmiy, huquqiy, ma‘naviy, tarbiyaviy) takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasida shakllangan geografik nomlarning ekologik jihatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** O‘zbekiston Respublikasida shakllangan geografik nomlarning ekologik funksiyasini hisobga olgan holda, tabiatni muhofaza qilish tizimida geografik nomlardan foydalanish mexanizimini takomillashtirish masalalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada adabiyotlar bilan ishlash, kuzatish, monitoring, kartografik, qiyosiy-geografik, tarixiy qiyoslash, toponomik, ekspeditsiya, etnoekologik, taqqoslash, rayonlashtirish, tizimli tahlil, statistik usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Geografik nomlarning an‘anaviy funksiyalariga qo‘shimcha ravishda ekologik funksiyasi mavjudligi O‘zbekiston Respublikasidagi joy nomlarini etimologik tahlili asosida ochib berilgan;

Tabiat komponentlarida (relyef, suv obyektlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi) tabiiy va antropogen omillar ta‘sirida yuz bergan o‘zgarishlarni geografik joy nomlarida aks etishi asosida ekologik muhitning o‘tmishdagi va hozirgi holatini aniqlangan;

Mahalliy va geografik terminlarni tabiatdan foydalanish jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar haqida ma‘lumot beruvchi indikatorlik (darakchilik) funksiyasi aniqlanganligi hamda ulardan amaliyotda foydalanish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy-ekologik mazmundagi geografik nomlarni tabiatdan oqilona foydalanishni tashkil etish va uni muhofaza qilishni takomillashtirishdagi funksiyalaridan o‘quvchi yoshlarga ekologik ta‘lim va tarbiya berishda foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Mamlakatimizdagi geografik nomlar tahlilidan foydalanib, tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishning yangi yo‘nalishlari ishlab chiqilgan;

Mamlakatimiz oronimlarini hosil qilgan ayrim terminlarning (tog‘, tepa, do‘ng, chuqur, jar) toponimik rayonlar bo‘yicha taqsimlanish karta–sxemasi yaratilgan;

Mamlakatimizdagi o‘simlik va hayvonot dunyosi vakillarining nomi bilan 2500 dan ortiq geografik obyektlar nomlangan bo‘lib, ushbu ma’lumotlar ArcGIS Pro 3.0 yordamida ArcGIS Online tizimiga web xarita ko‘rinishiga keltirildi. Ushbu web xaritalar orqali joy nomining toponimik rayondagi hududiy joylashuvi (viloyat, tuman, shahar), qaysi hayvon turini bildirishi, miqdorini va nom shakllangan hudud tabiati bilan bog‘ligi aniqlangan;

Geografik terminlarning ekologik yo‘nalishda bajaradigan vazifalariga bo‘yicha dastlab ikkita katta guruh, keyinchalik kichik guruhlarga ajratilib, ulardan foydalanish yo‘nalishlarini ko‘rsatuvchi tasnifiy jadvali tuzilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishining ishonchliligi O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ma’lumotlaridan foydalanilganligi, ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullari, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar ilmiy-asoslangan manbalardan olinganligi, arxiv va fond materiallaridan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot ishining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimizdagi geografik nomlarning etimologiyasi, ekologik jihatlar va uning ahamiyati, shuningdek tabiatni muhofaza qilish va undan foydalanishning nazariy masalalari yechimida foydalanish imkoniyati mavjudligini asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan asosiy xulosa va tavsiyalardan mamlakatimiz geografik nomlar orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilishning strategik dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, geografik nomlarning ekologik jihatdan tahlil qilishning asosiy yo‘nalishlari va uslublarini belgilash, toponimik lug‘atlar, monografiya, o‘quv qo‘llanma va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekiston Respublikasi geografik nomlarning ekologik funksiyasini mintaqaviy xususiyatlari ilmiy tahlili asosida:

geografik nomlarning an’anaviy funksiyalariga qo‘shimcha ravishda ekologik funksiyasi mavjudligi bo‘yicha joy nomlarini etimologik tahlilidan O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025-yil 6-oktabrdagi 03-03/1-03/3-10013-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, geografik nomlar “yerning tarixidan so‘zlovchi “tili” sifatida tabiat komponentlarining (relyef, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi) dastlabki holati, ulardan oqilona foydalanish usullari haqida

ma'lumot beruvchi darakchilik funksiyasining yangi ekologik yo'nalishini asoslash imkonini bergan.

mamlakatimizdagi tabiat komponentlarida (relyef, suv obyektlari, o'simlik va hayvonot dunyosi) tabiiy va antropogen omillar ta'sirida yuz bergan o'zgarishlar nomning etimologik tahlili, dala tadqiqotlari hamda so'rovnoma asosida aniqlanganligiga oid ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 6-oktabrdagi 03-03/1-03/3-10013-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tabiat komponentlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'zgarishi, miqdorini kamayishi, ko'lamini qisqarishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlash va bu jarayonni optimallashtirish imkoniyati yaratilgan.

mahalliy va geografik terminlarni tabiatdan foydalanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar haqida ma'lumot beruvchi indikatorlik (darakchilik) funksiyalaridan 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 6-oktabrdagi 03-03/1-03/3-10013-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, indikatorlik (darakchilik) funksiyasidan tabiatni muhofaza qilish va undan foydalanish amaliyotida foydalanish imkonini bergan.

O'zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy-ekologik mazmundagi geografik nomlarni tabiatdan oqilona foydalanishni tashkil etish va uni muhofaza qilishni takomillashtirishdagi funksiyalaridan o'quvchi yoshlarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalariga oid yangiliklardan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturining ustuvor yo'nalishlari "Tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va ekologik turmush tarzini shakllantirish"dagi belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 6-oktabrdagi 03-03/1-03/3-10013-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ijtimoiy-ekologik mazmundagi geografik nomlarni kishilarda tabiat komponentlariga egalik hissini shakllantirish, oqilona, tejamkorlik bilan foydalanish fazilatlarini yuzaga kelish imkoniyatini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobeiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha ishlar 6 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy maqola va tezislar e'lon qilingan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish.** Dissertatsiya ishining kirish qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy rejaları bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiq etish metodologiyasi va metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, himoyaga olib chiqilgan ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Geografik nomlarning ekologik xususiyatlarini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanib, geografik nomlarni o'rganishning ekologik-geografik jihatlari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan MDH va xorijlik olimlarning ishlari tahlil qilingan. Mamlakatimiz toponimiyasini o'rganish bilan shug'ullangan olimlarning tadqiqot yo'nalishlari, shuningdek mazkur tadqiqot ishining yuqoridagi yo'nalishlardan farqli jihatlari hamda mamlakatimiz toponimlarining ekologik funktsiya bajaruvchi nomlarning tasnifi misolida yoritilgan.

Geografik nomlarni tasniflashda ekologik-geografik yondashuv asosida o'tkazilayotgan ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda. Geografik nomlarni uzoq vaqt saqlanib qolishligidan bugungi kunga kelib tabiat va jamiyat o'rtasida kechayotgan salbiy tabiiy-geografik jarayonlar nomlarda aks etishi va bu holat tabiiy-atrof muxitga antropogen omil ta'sirini baholashda qo'shimcha material sifatida xizmat qilmoqda. Joy nomlari hududning o'ziga xos geografik va ekologik xususiyatlarini o'ziga mujassamlashtiradi. Bunday nomlarni fanda ekologik toponimlar deb atalmoqda. Ekologik toponimlar tushunchasini ilmiy adabiyotlarda ilk marta 1993 yilda Dog'istonlik olim X.L.Xanmagomedov tomonidan ishlatildi (Xanmagomedov, 1993). Yo'nalish asoschilaridan biri X.L.Xanmagomedovning ta'kidlashicha “uning asosiy maqsadi o'tmishdagi landshaftlar va tabiiy-geografik sharoitning toponimik guvohlarini, ya'ni ijtimoiy-geografik va landshaft muhitida aholining joylashuvi va moslashuvdagi ekologik omillarning ta'siri ya'ni antropogenez oqibatida yo'q bo'lib ketgan alohida o'simlik-hayvon turlari va biotsenozlar areallarini tiklashdir”. Geografik nomlarning ekologik jihatlari tasniflash va tadqiqot yo'nalishlarini belgilashda MDH olimlaridan E.M.Murzayev (1979), E.B.Nuriyev (1979), R.M.Yuzbashev (1979), G.I.Xornauli (1979), V.S.Jekulin (1982), X.L.Xanmagomedov (1993), S.Z.Maxacheva (1993), A.N.Gebekova (1993), V.D.Belenkaya (1969), V.N.Kalutskov (2009), O'zbekistonlik olimlardan H.Hasanov (1965), S.Qorayev (2006), N.Oxunov (2005), Q.Hakimov (2010), Y.Axmadaliyev (2018) P.Otaqulov (2020) kabi

olimlarning hissaları katta hisoblanadi. Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlaridan kelib chiqib ekologik mazmundagi geografik joy nomlarini quyidagi tasnifiy guruhi ishlab chiqildi (1-rasm).




### 1-rasm. Geografik nomlarning ekologik xususiyatlari bo'yicha tasnifi

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizda geografik nomlarning an'anaviy funksiyasiga qo'shimcha ravishda ekologik jihatlarini tadqiq etish zaruriyati tug' ilmoqda. Shuningdek, mazkur bobda geografik nomlarni tadqiq etish bosqichlari va usullari ko'rib chiqildi.

Dissertatsiyaning **“Geografik nomlarni tabiat komplekslarining o'zgariganligini ifodalovchi indikatorlik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida joy relyefi va uning o'zgarishi haqida ma'lumot beruvchi geografik nomlar, suv obyektlari xususiyatlarining o'zgarish darajasini geografik nomlarda ifodalanishi, o'simlik-hayvonot dunyosi turlari va tarqalish areallarining o'zgarishini ko'rsatuvchi nomlar tavsifi kabi masalalar atroflicha tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi hududida joyning yer usti tuzilishini ifodalovchi geografik nomlar keng tarqalgan. Joy relyefining tuzilishi, sathi bilan bog'liq bo'lgan bunday geografik nomlar-oronimlarga tog' (tosh), adir, qir va tepaliklar bilan birga, balki relyefning salbiy shakllari vodiylar, daralar, jarliklar, soyliklar, o'yiqlik, shuningdek, tekislik, pasttekisliklar ham kiradi. Vaqt o'tishi bilan obyektning relyefi o'zgarishi mumkin, biroq o'sha relyefni ifoda qilgan nom

saqlanib qolaveradi. Tadqiqotlar natijasida mamlakatimizda 1088 ta oronimlar (togʻ, tepa, doʻng, jar, chuqur terminlari asosida) ning toponimik roʻyxati shakllantirildi. Ushbu terminlar ishtirok etgan joy nomlari mamlakatning turli toponimik rayonlari miqyosida tarqalish karta-sxemasi ishlab chiqildi (2-rasm). Oronimlarning miqdor jihatdan koʻpligi bilan Janubiy toponimik rayon alohida ajralib turadi. Ushbu mintaqada 313 marta joy nomlari tarkibida oronimlar ishtirok etgan. Shuningdek, Samarqand, Fargʻona toponimik rayonlarida ham oronimlar salmoqli ahamiyatga ega. Hududining asosiy qismini tekisliklardan iboratli sababli Quyi Amudaryo toponimik rayonida oronimlar joy nomlari tarkibida eng kam miqdorda (39 marta) uchraydi.



## 2-rasm. Mamlakatimiz oronimlarini hosil qilgan ayrim terminlarning toponimik rayonlar boʻyicha taqsimlanish karta-sxemasi

Mamlakatimiz aholi maskanlari orasida relyef shaklini anglatuvchi “tepa” termini qatnashgan geografik nomlarni juda koʻplab uchratishimiz mumkin. Tepa termini bilan bogʻliq joy nomlari nafaqat relyef xususiyatini (balandlik, doʻnglik) ifodlaydi, balki maʼlum hududning flora-faunasi, etnik tarkibi va tashqi belgisi shuningdek madaniy-diniy meros kabi koʻp qirrali ekologik va geografik maʼlumotlarni oʻzida saqlab qoladi. Bu holat mazkur hududlarni ekologik-indikator sifatida ana shu hududda yashayotgan aholiga darakchilik vazifasini oʻtagan. Toponimik rayonlar miqyosida ekologik-geografik tadqiqotlar natijasida tepa termini ishtirok etgan joy nomlarini quyidagi guruhlarini shakllantirildi (1-jadval).

**Tepa topotermini asosida shakllangan joy nomlarining toponimik rayonlar bo'yicha ekologik-geografik mazmundagi guruhlari**

<b>№</b>	<b>Toponimik rayonlar</b>	<b>O'simlik, hayvonot olami + tepa asosida</b>	<b>Etnos, kishi ismi, taxallusi + tepa asosida</b>	<b>Rangi, tashqi belgisi (miqdori) + tepa asosida</b>	<b>Madaniy-diniy belgisi + tepa asosida</b>
1	Farg'ona toponimik rayoni	Bo'ritepa, Ilontepa, Sarimsoqtepa, Chilontepa	Arabtepa, Naymancha, Kamoltepa, Sobirtepa	Oqtepa, Qiziltepa, Qoratepa, Mingtepa	Eshontepa, Xo'jatepa, Porosmontepa, Go'ртеpa
2	Samarqand toponimik rayoni	Ayg'irtepa, Jayratepa, Chantaltepa, Chinortepa	Ismoiltepa, Kamoltepa, Do'rmontepa, Ismoiltepa	Qiziltepa, Sariqtepa, Yaloqtepa, Beshtepa	Avliyotepa, Baxshitepa, Chillatepa, Imomtepa

*Jadval muallif tomonidan tuzilgan, avtoreferatda qisqartirilgan.*

Mamlakatimizning bir nechta hududlarida uchraydigan Mingtepa (Marhamat, Bulung'ur, Urgut, O'rta Chirchiq, Piskent tumanlari) joy nomi taxlili shuni ko'rsatdiki, hozirda ushbu hududlarda tepalar soni miqdor jihatdan kamayganligi, o'simlik va hayvonot olami esa dehqonchilik, chorvachilik tufayli yashash areali o'zgarganligini toponimik tadqiqotlar ko'rsatdi.

Mamlakatimiz hududidagi gidronimlarni yasashida suv obyektining tabiiy-ekologik xususiyatlari bilan bog'liq geografik obyektlar o'rganildi va ularni mos ravishda dastlab katta guruhlarga, o'z navbatida esa ular bir nechta kichik guruhlarga ajratilgan holda suv obyektlaridagi ekologik o'zgarishlar joy nomlari misolida tahlili amalga oshirildi.

I. Suv obyektining tabiiy-ekologik xususiyatlari: suvning rangi bilan bog'liq nomlar Ko'ksuv, (Bo'stonliq t.), Ko'kbuloq (Nurota t.); suvning maza-ta'mi bilan bog'liq nomlar Shorkel (Nukus t.), Shirinariq (Zomin t.); suvning hidi va harorati bilan bog'liq nomlar Issiqchashma (Kitob t.), Qaynarbuloq (Paxtachi t., Urgut t.); suvning shifobaxshligi bilan bog'liq nomlar So'galbuloq (Chortoq t.), Qo'tirbuloq (Oqdaryo t., Payariq t., Toyloq t.)


II. Suv obyektining tabiiy-geografik xususiyatlar: suv obyektining oqim holati, miqdori va hajmi bilan bog'liq nomlar Damariq (Andijon t., Buvayda t., Quva t., Forisht., Xatirchi t., Ishtixon t., Mirobod t., Yakkasaroy t.), Kattayop (Xonqa t.); suv obyektining tashqi ko'rinishi, yer usti tuzilishiga (landshafti) nisbat berilgan nomlar Qayirma (Jalaquduq t., Oltinko'l t., Chust t., Ohangaron t., Xovos t., Zomin t.), Toshquduq (Kasbi t., Bo'ka t.); suv obyektining daraxt va o'simlik bilan bog'liq nomlar Jiydabuloq (Dehqonobod t., Qamashi t., Boysun t., Uzun t.), Tolquduq (Yozyovon t.); suv obyektining hayvonot olami bilan bog'liq nomlar Cho'chqalisoy (Forish t.), Qarg'ayop (Yangibozor t.)

III. Xalqlar, urug', qabila nomi bilan bog'liq nomlarga Naymanko'l (Chiroqchi t.), Qipchoqariq (Qo'qon sh.), Qozoqsuv (Shofirkon t.)


IV. Kishilarning ismlari, laqablari, taxallusi, amali, unvoni bilan bog'liq nomlarga Abdullaxonbandi (Nurota t.), Usmonolish (Chust t.), Qilichboyarna (Gurlan t.) shu kabi geografik nomlar o'rganildi.

O‘simliklar va hayvonot dunyosi insoniyatning moddiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida muhim o‘rin tutgan. Shu sababli o‘simlik va hayvonot dunyosi vakillari nomlari joy nomlarida saqlanib qolgan, biroq tarqalish areallari keskin o‘zgarishga uchraganligi tadqiqotlar asosida aniqlandi.

Dunyo miqyosida jiyda tarqalgan hududlar asosan, 1900 – yillarda Yevropa, Osiyo, Amerika qit‘asiga to‘g‘ri kelishini geografik nomlar taxlili bo‘yicha aniqlangan. (3.1a, 3.2 B-rasm).



**3.1 a-rasm. 1900-yilda jiyda daraxtining yer yuzida tarqalishi**




**3.2 B-rasm. 2025-yilda jiyda daraxtining yer yuzida tarqalishi. (manba:www.gbif.org)**

Xozirgi davrga kelganda ushbu daraxtning tarqalish areali keskin qisqarganini yuqoridagi xarita orqali ko‘rish mumkin. Lekin geografik obyektlar tarkibida nomlar saqlanib qolganini tadqiqotlar ko‘rsatdi. Mamlakatimiz bo‘ylab jiyda nomi 47 marotaba mahalla, ko‘chalar nomida takrorlanib keladi. Masalan, Jiydakapa (Uychi t.), Qorajiyda (Beshariq t., Qo‘shtepa t.), Jiydali (Bektemir t., Olmazor t.) kabi. Biroq, bugungi kunda ushbu o‘simlik Farg‘ona toponimik rayonidagi Qo‘shtepa, Uychi, Farg‘ona tumanlarida, Toshkent toponimik rayonida esa Bektemir, Olmazor tumanlari hududida deyarli uchramaydi, uning nomigina saqlanib qolgan. Shuningdek, Farg‘ona toponimik rayonining Beshariq, Furqat, Pop, Marhamat tumanlarida, Buxoro-Navoiy toponimik rayonining Olot tumanida, Janubiy toponimik rayonining esa Qumqo‘rg‘on, Dehqonobod, Uzun, Yakkabog‘ tumanlarida bu mevali daraxt saqlanib qolgan areallar qisqarganini ta‘kidlash zarur. Shunday xulosani anor, bodom, yong‘oq, tut daraxtlar nomi bilan atalgan fitooykonimlarning hududiy tarqalishida ham uchratish mumkin. Shuningdek mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan lola, yantoq, yulg‘un nomi bilan atalgan geografik obyektlar uchraydi. Biroq, bu nomlar bilan atalgan Lolazor (Paxtaobod t., Farg‘ona sh., Davlatobod t.), Qorayantoq (Pastdarg‘om t., Sharof Rashidov t., Farg‘ona t.), Yulg‘unzor (Uchko‘prik t.), Talliyulg‘un (Kasbi t.) mahallalarda mazkur o‘simliklar deyarli uchramaydi.

Mamlakatimizda hayvonot olami vakillarining nomi bilan atalgan geografik obyektlar ham toponimik rayonlar misolida tahlil qilindi. Dastlab hayvonot olami vakillari nomi bilan atalgan joy nomlarini ekologik – geografik tadqiqotlar mazmunidan kelib chiqib kichik guruhga bo‘lib o‘rganildi. Dastlab guruhga hozirgi kunda mamlakatimiz hududida tarqalgan yovvoyi hayvonlar nomi bilan atalgan geografik obyektlarning nomlari olindi. Bu turdagi joy nomlari 9 hayvon

turi ishtirokida o‘rganildi va jami 40 marta aholi punktlari nomlarida takrorlanib keladi. Ushbu guruhda mintaqada tarqalgan, hozirda yo‘q bo‘lib kamayib ketgan Beshbo‘ri (Buxoro t.), Bo‘rijar (Chilonzor t.), Boybo‘ri (Qamashi t.), Bo‘riboshi (Marhamat t.), Tulkiobod (Baliqchi t.), Qoratulki (Ohangaron t.), Shunqor (Furqat t.) kabi toponimlar mavjud. Shuningdek, mamlakatimizda Olaqarg‘a (Yakkabog‘ t.), Qarg‘ali (Nurobod t.), Chumchuqli (Samarqand t., Urgut t.), Chumchuqjar (Yuqori Chirchiq t.) kabi nomlar hozirda muhofazaga muxtoj qushlar nomidan olingan.

Tadqiqotlar natijasida, mamlakatimiz hududida hayvonot olami vakillari nomi bilan 380 ta geografik obyektlar nomlangan. Ushbu ma‘lumotlar ArcGIS Pro 3.0 yordamida tayyorlanib ArcGIS Online tizimida web xarita ko‘rinishiga keltirildi (4-rasm).<sup>3</sup>



#### 4-rasm. Hayvonot olami vakillari nomi bilan atalgan joy nomlarining web xaritasi

Ushbu web xaritalar orqali zootoponimning toponimik rayondagi hududiy joylashuvi (viloyat, tuman, shahar), qaysi hayvon turini bildirishi, miqdorini va nom shakllangan hudud tabiati bilan bog‘liqligini aniqlash mumkin. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki nomlar saqlanib qolgan joylarda yuqoridagi hayvonlarning ko‘pchiligi hozirda deyarli uchramaydi.

Dissertatsiyaning “**Geografik nomlarda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yo‘nalishidagi ahamiyati**” deb nomlangan uchinchi bobida geografik terminlar va ularning ekologik funksiyasi, ijtimoiy mazmundagi geografik nomlarning tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishdagi ahamiyati, tabiatni muhofaza qilishda geografik nomlardan foydalanish mexanizimini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Geografik terminlarning tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishdagi o‘rni hamda ahamiyatini asoslash maqsadida, avvalo mazkur terminlarning

<sup>3</sup> <https://www.arcgis.com/apps/dashboards/f81e0134285c4e7696f25f07932b84ff>

ekologik funksiyalari har tomonlama tadqiq qilindi. Mazkur tadqiqot maqsadidan kelib chiqib geografik terminlarni ikkita katta keyinchalik esa ularni kichik guruhlariga bo'lish mumkin.

Dastlabki katta guruhga tabiiy – ekologik asosga ega bo'lgan geografik terminlar kiritiladi. Dastlabki kichik guruhga joy relyefi, landshaft tuzilishi va xususiyatini bildiruvchi *tepa, dovon, qir, gaza, dara, chuqur, jar, dasht, qum, bo'z, bo'ktar, cho'l, yovon, o'rmon, yaylov, to'qay, lalmi* kabi maxalliy terminlar kiritiladi. Ularga Cho'lquvar (Arnasoy t., Zomin t, Qorovulbozor t.), Qumbosti (Shofirkon t.), Hoshimdasht (Uchko'prik t.), Dashtobod (Bo'ka t.) singari joy nomlari misol bo'ladi. Ikkinchi kichik guruhga tabiatdan foydalanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan salbiy jarayonlar haqida ma'lumot beruvchi *sho'r, sho'rob, sho'rxok, zax, vob, jar, yar, yor, ko'lob, sel, chim, qaqir, taqir, sang, chuqur* kabi terminlar kiritiladi. Ularga Sho'raqo'rg'on (Chust t.), Sho'rovul (Navbahor t.), Qaqirchek (Beshariq t.), Taqir (Xiva t.), Oqtaqir (Tomdi t.), Zaxkash (Baliqchi t.), Zaxlik (Samarqand t.), Toshqishloq (O'zbekiston t.), Toshloq (Shovot t.) kabi joy nomlari mavjud.

Navbatdagi ikkinchi katta guruhga ijtimoiy – ekologik asosga ega bo'lgan geografik terminlar kiritiladi. Joy yoki obyektning ulug'lash, iloxiylashtirish va muqaddasligini ochib beruvchi *aziz, azim, buyuk, bobo, ota, buzruk, momo, cho'n, sar, ulug', nur, padar, avliyo, mozor, masjid, yetti, islom, imom, jannat, zoxid, ko'k, payg'ambar, oq (safed), sahoba, so'fi, turbat, to'ra, xo'ja, xizir, shayx, shahid, eshon, qalandar* kabi terminlar dastlabki kichik guruhni tashkil qilib, ular yordamida Azizobod (Qiziltepa t.), Buzruksonto'ra (Jalaquduq t.), Bobodehqon (Bektemir t., Yunusobod t.), Changovulota (Yangiobod t.), Xurmozor (Bandixon t.), Ko'hnamasjid (Buxoro t.), Islomobod (Vobkent t.) kabi nomlar yaratilgan. Ikkinchi kichik guruh sifatida joy yoki obyektning g'ayritabiiy, afsonaviy, sirli xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi *ajina (jin), alvasti, arvoq, borsakelmas, bedarak, voxim, dev, devgar, devona, jinni, yomon (jomon), zindon, ilonli, kallaxo'r, maxram, changal, pari, shayton, yalong'och, o'ldi, qaroqchi, qatag'on, qirildi* kabi terminlar yordamida mamlakatimizda joy nomlari ifodalangan (2-jadval). Mamlakatimizda Kallaxo'r (Marg'ilon sh.), Qaroqchitol (Bag'dod t.), Zindontepa (Quva t., Oqdaryo t.), Yalang'och (Mirzo Ulug'bek t.), Ilonli (Forish t.), Kampiro'ldi (Payariq t.), Mug'jin (Qiziltepa t.), Qiron (Jarqo'rg'on t.), Borsakelmas (Qo'ng'iro't t.), Ilonliqal'a (Beruniy t.) kabi nomlarni eshitgan kishi sergak tortishi, u joylardan foydalanishda o'zini tiyadi.

Ijtimoiy mazmundagi geografik nomlarga mazkur tadqiqot maqsadidan kelib chiqib antropotoponimlar (kishilar ismi, laqabi, mansabi, amali, tabaqasidan yasalgan nomlar) va etnotoponimlarni (xalq, qabila, urug', qavmlar nomidan olingan nomlar) kiritildi. Dastlab antropotoponimlarni toponimga aylanish jarayonida shaxs bilan obyekt o'rtasidagi o'zaro munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Muayyan hududda yashagan shaxs yoki uning jamiyatdagi mavqeyiga oid belgilar ko'pincha antropotoponimlarning shakllanishiga asos bo'ladi. Bunday belgilar turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib, kishining kasbi, mashg'uloti, ijtimoiy lavozimi, etnik mansubligi yoki laqabi kabi individual xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

**Joy yoki obyektning g'ayritabiiy, afsonaviy, sirli xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi geografik nomlar**

<b>№</b>	<b>Geografik obektning nomi</b>	<b>Geografik obekt turi</b>	<b>Geografik joylashuvi</b>
1.	Bedarak	mahalla	Bag'dod t.
2.	Beshentak	mahalla	O'rta Chirchiq t.
3.	Ilonli	mahalla	Forish t.
4.	Enamyaxshi	mahalla	Kattaqo'rg'on t.
5.	Qatag'on	mahalla	Vobkent t.
6.	Taloqtepa	mahalla	Chiroqchi t., Ko'kdala t.
7.	Devkampir	ko'cha	Mo'ynoq t.

*Jadval muallif tomonidan tuzilgan, avtoreferatda qisqartirilgan.*

